

ZAMONAVIY LIDERLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Olimov Saydulo Soxobjonovich*Qo'qon universiteti "Pedagogika va Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi***Ibrohimova Kumush Baxtiyor qizi***Qo'qon universiteti Psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy liderlarning psixologik xususiyatlari, ularning shakllanish jarayoni, yetakchilik fazilatlarini namoyon etish uslublari va shaxsiy-psixologik omillari nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan. Liderlikning klassik va zamonaviy nazariyalari, shuningdek, yetakchilikning psixologik asoslari, motivatsiya, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya kabi jihatlar tizimli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy lider, psixologik xususiyat, sardorlik, tavakkalchilik, liderlik salohiyati, shaxsiy fazilatlar, psixodiagnostika, talabalar, yetakchilik, psixologik tadqiqot.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari inson hayotining barcha jabhalarida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt, metavers, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot madaniyatining o'zgarishi insoniyat oldiga yangi muammolar va imkoniyatlar qo'ymoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tizimlar, tashkilotlar, ta'lim va iqtisodiy sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, inson kapitalini samarali boshqarish kabi dolzarb masalalarning yechimi samarali va ongli liderlarga bog'liq bo'lmoqda. Bunday sharoitda liderlik fenomeni, uning psixologik mazmuni, shaxsiy va ijtimoiy jihatlari ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor markazida turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Bugungi yoshlar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, qat'iyatli va tashabbuskor bo'lishi, jamoalarni boshqarish va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.» Ushbu fikrlar yosh avlodning zamonaviy bilim va rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.¹

Psixologiya fanida liderlik – bu boshqalarning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish va ularni maqsad sari yo'naltirish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu tushuncha ko'p jihatdan boshqaruv, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va menejment fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. Psixologik nuqtai nazardan esa liderlik bu shaxsning ichki resurslari, ijtimoiy rolga tayyorligi, emotsional

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, 2025-yil 14-fevraldagi "Prezident yoshlar bilan samimiy muloqot qildi" tele/videoselektor yig'ilishi, president.uz

muvozanati, kommunikativ salohiyati, stressga chidamliligi va ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligining mahsulidir.

Liderlik masalasi bo'yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarda bir nechta yondashuvlar shakllangan: xususiyatlar nazariyasi (trait theory), xulq-atvor yondashuvi (behavioral approach), vaziyatli yondashuv (contingency theory), xarizmatik liderlik, transformatsion liderlik, xizmat qiluvchi liderlik va boshqalar. Bu yondashuvlarning har biri liderning muvaffaqiyati qanday omillarga bog'liqligini turlicha tushuntiradi.

Bugungi kunda har bir sohada lider shaxslarga ehtiyoj katta. Sog'liqni saqlash tizimida – bemorlar bilan hamdardlik asosida ishlaydigan bosh shifokor, ta'limda – o'z o'quvchilarini ilhomlantira oladigan direktor yoki o'qituvchi, biznesda – o'z jamoasini murakkab iqtisodiy sharoitlarda ham samarali boshqaradigan top-menejer, siyosatda esa – jamiyatning turli qatlamlarini birlashtira oladigan lider zarur. Bu esa liderlikni biror-bir soha bilan cheklab bo'lmashligini, balki inson faoliyatining barcha sohalariga daxldor ko'p qirrali psixologik hodisa ekanini anglatadi.

Zamonaviy liderlarda yuqori emotsional intellekt darajasi ularning samarali boshqaruv faoliyatini ta'minlaydi. Liderlikning psixologik xususiyatlari jins, yosh va ijtimoiy tajribaga qarab farqlanishi mumkin. O'zini anglash darajasi, kommunikativ kompetensiya va motivatsiya zamonaviy liderlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Ilk nazariy yondashuvlar — buyuk shaxslar nazariyasi (Great Man Theory) — liderlikning tug'ma xususiyatga egaligini ilgari surgan. T. Karleyl va F. Galton kabi tadqiqotchilar liderlar ijtimoiy evolyutsiyaning mahsuli emas, balki tabiiy yetakchilar ekanligini ta'kidlaganlar. Biroq bu nazariya liderlikka ijtimoiy ta'sirlarni inobatga olmaganligi uchun keyinchalik tanqid ostiga olingan².

Keyinchalik rivojlangan xususiyatlar nazariyasi (Trait Theory) liderlarda uchraydigan umumiy psixologik va ijtimoiy sifatlarni aniqlashga urindi. R. Stogdill (1948, 1974) o'z tadqiqotlarida liderlikni aniqlovchi sifatlarni kontekstga bog'liq holda o'zgarishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar liderlik faqat ichki salohiyat emas, balki tashqi omillar bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatdi³.

Yana bir chet ellik olimlar Mark Schafer va Joshua E Lambertning "Psychological Characteristics of Leaders (PsyCL): A New Data Set" maqolasida Liderlarning psixologik xususiyatlari (PsyCL) ma'lumotlar to'plamini taqdim etadi. Tashqi siyosat qarorlarini insonlar qabul qiladi va inson psixologiyasi bu qarorlarga ta'sir qiladi. Strukturaviy omillar siyosat muammolari va imkoniyatlarini shakllantirishi mumkin bo'lsa-da, odamlarni bizning modellarimizdan chiqarib tashlash muhim omillarni o'tkazib yuborishi aniq. O'tmishda ma'lumotlar yo'qligi sababli psixologiya qisman

² T. Karleyl. F. Galton. Personal factors associated with leadership: A survey of the literature. Journal of Psychology, 25(1), 35–71

³ Stogdill, R. M. Handbook of leadership: A survey of theory and research. Free Press.

chiqarib tashlangan; PsyCL bu muammoni hal qila boshlaydi. Biz qaror qabul qilishda psixologiyani ahamiyatini muhokama qilamiz, ma'lumotlarning tuzilishi va ko'lamini va uning moslashuvchan tahlil birliklarini tavsiflaymiz, ba'zi oddiy empirik misollar keltiramiz va kelajakdagi tadqiqotlar bo'yicha fikrlarini ilgari surgan⁴.

So'nggi yillarda liderlikni aniqlovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida emotsional intellekt (EQ) e'tirof etilmoqda. Daniel Goleman (1995) bu tushunchani ommalashtirib, samarali liderlikda empatiya, o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va ijtimoiy ko'nikmalar muhim rol o'ynashini isbotladi. Xususan, Goleman liderlikni 6 modelga bo'lib o'rgandi (vizioner, ko'maklashuvchi, buyruq beruvchi, demokratik, talabchan, murabbiylik qiluvchi)⁵.

“Sardor” metodikasi liderlik qobiliyatlarini aniqlashda eng ko'p qo'llaniladigan metodikalardan biri hisoblanadi. Ushbu metodika shaxsning sardorlik (yetakchilik) fazilatlarini qay darajada rivojlanganligini aniqlashga yordam beradi. Metodika 50 ta savoldan iborat bo'lib, har bir savolda ikki xil javob varianti beriladi: “Ha” yoki “Yo'q”. Tadqiqot ishtirokchisi o'z holatiga eng mos keladigan javobni tanlaydi va javob varaqasida belgilaydi.

Metodikaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Liderlik sifatlarini aniq va ishonchli baholash imkonini beradi;

Individual va guruhviy o'tkazish uchun qulay;

Savollar shaxsning ichki motivatsiyasi, boshqalarni boshqarish, tashabbuskorlik va mas'uliyatlilik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan;

Natijalarni oson hisoblash va talqin qilish imkoniyatiga ega.

“Tavakkalchilikka tayyorlik darajasini aniqlash” metodikasi (Shubert) esa liderlikning muhim psixologik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan tavakkal qilishga tayyorlikni o'rganish imkonini beradi. Bu test 25 ta savoldan iborat bo'lib, har bir savolga quyidagi ballar tizimi asosida baho beriladi:

+2 ball — to'liq qo'shilaman (“Ha”)

+1 ball — “Yo'q”dan ko'ra “Ha”

0 ball — ikkalasiga ham teng

–1 ball — “Ha”dan ko'ra “Yo'q”

–2 ball — to'liq “Yo'q”

Mazkur metodika lider shaxsning xavfga moyilligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va yangilikka ochiqlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar esa zamonaviy liderlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy lider tushunchasi murakkab psixologik tizim

⁴ Mark Schafer, Joshua E Lambert, Psychological Characteristics of Leaders (PsyCL): A New Data Set, Foreign Policy Analysis, Volume 18, Issue 2, April 2022, orac008

⁵ Goleman, D. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. Bantam Books.

bo‘lib, sardorlik va tavakkalchilik fazilatlarini bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy manbalar va amaliy tahlillar asosida tasdiqlaydi. Tavakkalchilikka tayyorlik darajasi o‘rtacha va yuqori darajada shakllangan talabalar yangi tashabbuslarni ilgari surish, murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga qodir ekanligini namoyon etdi. Sardorlik va tavakkalchilik o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy lider uchun ularning uyg‘unligi samarali boshqaruv va jamoa bilan ishlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. (2025, fevral 14). Prezident yoshlar bilan samimiy muloqot qildi [Tele/videoselektor yig‘ilishi]. President.uz. <https://president.uz>
2. Aksakal, E., & Ulucan, H. (2024). Leadership expectations of Generation Z: A qualitative study. *Journal of Organizational Behavior Studies*, 32(1), 55–67.
3. Bauwens, R., Willems, R., & Van den Broeck, A. (2025). Emotional intelligence and leadership outcomes: A meta-analytic review. *Journal of Applied Psychology*, 110(2), 203–221.
4. BuxDU. (2023). Harbiy xizmatchilarda psixologik bosim va liderlik salohiyati. *Buxoro davlat universiteti ilmiy jurnali*, 4(1), 91–98.
5. *Frontiers in Psychology*. (2024). Full-range leadership and performance outcomes: A cross-national study. *Frontiers in Psychology*, 15, 118304. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2024.118304>
6. Galton, F., & Karleyl, T. (n.d.). Personal factors associated with leadership: A survey of the literature. *Journal of Psychology*, 25(1), 35–71.
7. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ*. Bantam Books.
8. Jangirova, S. S. (2021). Leadership psychology: Contemporary issues and secrets of successful leaders. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 2(3), 41–46.